

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING IJODIY FIKRLASH JARAYONLARINI O'STIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Urmonova Toshxon Ibragimovna*

*Toshkent pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijodiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Ta'riflab o'tilgan tafsiflar bolalarning ijtimoiy rivojlanishida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglarining ish faoliyati tajribalarini o'rganish tufayli yoritildi.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metod, interfaol ta'lim, hamkorlik, pedagogik hamkorlik, "Aqliy hujum", "Ro'lli o'yinlar", "Juftlikda ishlash", "Bahs-munozara", "Tanishuv", "Muzyorar" o'yini, "Davra suhbati".

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'naliishlardan biri - ta'lim va tarbiyaning interfaol metodlarini joriy qillishdan iborat. Barcha pedagoglar mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan borgan sari kengroq foydanmoqdalar.

**Interfaol metod-** Interfaol ("Inter"- bu o'zaro, "act" - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish) ni anglatadi. Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan xarakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir. U ta'lim jarayonida bolalar hamda pedagog o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning bilimlarini o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Pedagog va bola o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan interfaol metodlar interfaol ta'limning asosini tashkil etadi.

Shunga kora interfaol o'qitish ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilarini pedagog, bola va bolalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in baxs-munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni ijodiy yondoshish orqali birgalikda izlash, atrof-olam haqidagi bilimlarini o'zlashtirishda bolalarlarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish imkonini yaratadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarinin bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan xarakatni tatbiq etish layoqatiga egaliklaridir.

Interfaol mashg'uotlarda pedagogning o'rni qisman bolalarning faoliyatini mashg'ulot maqsadlariga erishishga yonaltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga hosligi shundaki, ular faqat pedagog va bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib:

- ta'lism oluvchilarining mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga yonaltirilishi;
- ta'lism oluvchilarining mashg'ulot davomida atrof-olamga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligi;
- pedagog va ta'lism bolalarning hamkorlikdagi faoliyatining muntazamliligi kiradi.

**Interfaol ta'lism** - ta'lism oluvchilarini bir-birlaridan o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'lism ekanlidir. Interfaol ta'lism, interfaol metodlar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, ta'lism oluvchilarining hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lism va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol metodlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lism oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan, o'ylayotgan narsalarini tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol metodni qo'llash natijasida bolalarning mustaqil fikrlash, masalaga ijodiy yondoshish, tahlil qilish, hulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qillish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqat - munozara, bahs olib borish ko'nikmallari shakillanib, rivojlanib boradi. Interfaol ta'lism metodi - har bir pedagog tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida hamda bolalarning individual pedagogik-psixologik rivojlanishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda har bir pedagog o'z motivlari va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga muvofiq ravishda interfaol metodlarni tanlaydi. Interfaol ta'lism metodlari orqali pedagog ta'lism natijasining ko'zlangan maqsadiga maksimal darajada erishadi. Maktabgacha yosh davrining 6-7 yoshli bolalar uchun interfaol mashg'uotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalardan namunalar keltirsak. Ta'lism samarodorligiga erishishning eng samarali yo'llaridan biri - bu mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Masalan: "Aqliy hujum", "Juftlikda ishlash", "Bahs-munozara", "Tanishuv" va boshqalar. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va oxirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash hamda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq.

**"Aqily hujum"** - metodi biror muammoni yechishda bolalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Ushbu metodni qo'llash oraqli bolalar guruh bilan

birga ma'lum bir muammoning yechimini topishga harakat qiladilar, uni muhokama qiladilar va birgalikda qaror chiqaradilar.

**“Aqliy hujum” metodi bo'yicha quyidagi taxminiy savollar tavsiya etiladi:** Qattiq sovuqda qolgan o'rmon hayvonlarini muzlab qolmasliklari uchun qanday himoya qilish kerak? 2. Asfaltga nima yoradamida rasm chizish mumkin? 3. Agarda qoshiqcha bo'lmasa issiq choyga solingan qandni qanday aralashtirish mumkin? 4. Agarda quyonning oyoqlari odamnikidek bo'lib qolsa nima bo'lar edi? 5. Siz “Egri va To'g'ri” ertagidagi To'g'rivoyning o'rnila bo'lib qolsangiz, kechqurun o'rmonda qanday yashiringan bo'lar edingiz? 6. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi Zumradga qanday yordam berish mumkin? 7. Agar o'rmondagi barcha yirtqich bo'rilar qirilib ketsa nima bo'lar edi 8. Ko'llardagi barcha baliqlar yo'q bo'lib qolsa nima bo'lar edi? 9. Qishda qushlar och qolmasliklari uchun nima qilish kerak? 10. Hovuzdagi suvda cho'kib ketmaslik uchun nima qilish kerak?

**“Ro'lli o'yinlar” metodi** yordamida bolalar real hayot holatlarini jonlantiradilar. Rolli o'yinlar bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, muammolarni mustaqil hal qilish, muammoli xatti-harakatlarning turli xil variantlarini ishlab chiqish va hayotiy vaziyatlarda boshqa odamlarni tushunishni tarbiyalashga yordam beradi. O'yin orqali ishtirokchilar haqiqiy hayotdagি o'z harakatlarini yaxshiroq tushunishlari, undan to'g'ri xulosa chiqarishlari mumkin Interfaol o'yin davomida guruh a'zolari yangi o'yinni o'zlashtiradilar, tajriba almashadilar, yangi rollar orqali aloqa qobiliyatları shakllanadi. Turli sohalarda lingan bilimlarini, qaror qabul qilishda qo'llaydilar.

**“Bahs munozara” metodi** bolalar guruhda o'zaro munosabatlarini yaxshilash, bir – birlariga tezlik bilan ko'nikishlari yoki bir – birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari uchun tashkil etiladi. “Bahs – munozara” metodini o'tkazishda mavzu bolalarga bir kun oldin beriladi. Bolalar savollarga ota-onalaridan so'rab javob topib keladilar hamda berilgan savollarga javoblar bahs - munozara asosida olib boriladi. (“Nima uchun yozda qor yog'maydi?”, “Nima uchun qushlar qishda issiq o'lkalarga uchib ketadilar?”, “Tishlar nima sababdan tushadi?”, “Haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerak?”, “Telefon insonga zarar keltiradimi?”) Tanlangan bahs mavzulariga chorlovchi, muammoli va qiziqarli hamda bolalar uchun tanish, tushunarli bo'lishi kerak. Aks holda, bola munozara davomida o'z fikrini bayon eta olmaydi yoki bahsga qo'shib o'z fikrini isbotlab, himoya qila olmaydi. Bunday bahslar bolalarni fikrlarga qarshi kurashishga, atrofdagi bo'layotgan voqealarni tushunishga, o'z fikrida turishga, boshqalarga o'z ta'sirini otkazish hamda o'rtoqlari bilan suhbat qilish, bahslashish, o'z fikri bilan bir qatorda o'zgalar fikrini eshitish madaniyatini tarbiyalaydi.

**Juftlikda ishlashni** tashkil qilinganda har bir bola o'ylaydi, noto'g'ri bo'lsa ham o'z fikrini taklif qiladi, juftlik ortasida tuirli hil fikrlar va bir fikrga kelish kabi jarayonlar paydo bo'ladi, turli xil yechimlar muhokama qilinadi. Muhimi faoliyat

jarayonida bola o'z fikrini aytishni, boshqalarni tinglashni va umumiy ish uchun sherigi bilan kelishishni, jamoa uchun qayg'urishni o'rganadi. "Juftlikda ishslash"da bolalarga juft tanlashga imkon berish kerak.

Keyingi bosqichda esa bolalar juftlikda mashq qilishni o'rganadilar.(Topshiriqni birga bajaradilar, juftlikda ishlaganda bolalarni savollar berishga va ularga javob berishga o'rgatish muhimdir. Bolalar do'stining javobini diqqat bilan tinglashni o'rganadilar).

Keyingi bosqichda juftliklar muhokamasi o'tkaziladi. Muhokama davomida topshiriqni bajarish jarayonidagi holatni gapirish, xulosalar chiqarishga o'rgatiladi.Shunday qilib," juftlikda ishslash " dan foydalanib, bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar, bir-birlari bilan hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Xulosa o'rnilida shuni aytish joizki, interfaol metodlardan foydalangan holda turli qiziqarli mashg'ulotlarni tashkil qilish hamda o'tkazish bolalarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni amalda qo'llash natijasida esa bolalar ko'proq amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Zamonaviy pedagoogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T.-2008 yil.
2. A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasи va metodologiyasi.-T.-2012 yil.
3. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).2008 yil
4. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (Ta'lim muassasalari tarbiyachi-o'qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).2010 yil
5. D.Ro'ziyeva. M.Usmonboyev, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va o'llanilishi Metodik qo'llanma.Toshkent-2013yil